



# Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)


## Doimiy aholi soni.

Samarqand viloyati doimiy aholisi soni 2019 yil 1-aprel holatiga 3813,6 ming kishini tashkil etib, 2019 yilning yanvar-mart oylarida 14,7 ming kishiga yoki 0,4 % o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 1419,5 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 37,2 %), qishloq aholisi soni 2394,1 ming kishini (62,8 %) tashkil etdi.

### 2019 yil yanvar-mart

- Aholi soni **14,7 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **19,8 ming nafami** tashkil etdi.
- **3,8 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **6,0 mingta nikoh** va **0,8 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.


### Samarqand viloyati aholisining umumiy o'sishi (2019 yil yanvar-mart oylarida)





## Demografik holat

### Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2019 yil 1-aprel holatiga, ming kishi,)




Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2019 yil 1-aprel holatiga eng ko'p aholi soni Samarqand shahrida 540,4 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 14,2 %), Urgut tumanida 496,9 ming kishini (13,0 %), Pastdarg'om tumanida 347,2 ming kishini (9,1 %) va Kattaqo'rg'on tumanida 267,9 ming kishini (7,0 %), aksincha kam aholi soni Kattaqo'rg'on shahrida 88,3 ming kishi (2,3 %), Qo'shrabot tumanida 128,7 ming kishi (3,4 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2018 yilning mos davriga nisbatan Jomboy va Urgut tumanlarida 2,4 %ni, Ishtixon va Payariq tumanlarida 2,1%ni, Bulung'ur va Qo'shrabot tumanlarida 2,0 %ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati Oqdaryo va Narpay tumanarida 1,7 %ni, Samarqand shahrida 1,5 %ni va Kattaqo'rg'on shahrida 1,3 %ni tashkil etdi.




## Demografik holat

### Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2019 yil 1-aprel holatiga, viloyatga nisbatan ulushi %)



### Hududlar kesimida doimiy aholi sonining shahar va qishloqlarga bo'linishi (2019 yil 1-aprel holatiga, foizda, dastlabki ma'lumot)





## Demografik holat


**Tug'ilish.** 2019 yilning yanvar-mart oylarida 19,8 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 21,1 promilleni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 0,9 promillega oshgan (2018 yilning yanvar-mart oylarida 20,2 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2018 yilning mos davriga nisbatan Oqdaryo tumanida (19,2 promilledan 22,7 promillega), Bulung'ur tumanida (20,4 promilledan 22,1 promillega) va Samarqand shahrida (16,0 promilledan 18,0 promillega) sezilarli o'sgani kuzatildi.

### Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

### Hududlar kesimida tug'ilganlar soni taqsimlanishi (2019 yil yanvar-mart)





## Demografik holat

### Tuman va shaharlar bo'yicha tug'ilganlar soni, kishi (yanvar-mart)

	2018 y.	2019 y.	O`shish sur`ati % da
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>18522</b>	<b>19781</b>	<b>106,8</b>
Samarqand sh.	2099	2399	114,3
Kattaqo'rg'on sh.	379	515	135,9
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	726	872	120,1
Bulung'ur	900	999	111,0
Jomboy	920	1001	108,8
Ishtixon	1362	1396	102,5
Kattaqo'rg'on	1274	1317	103,4
Qo'shrabot	743	777	104,6
Narpay	775	842	108,6
Payariq	1428	1499	105,0
Pastdarg'om	1506	1659	110,2
Paxtachi	715	758	106,0
Samarqand	1203	1164	96,8
Nurobod	730	675	92,5
Urgut	2855	2988	104,7
Tayloq	907	920	101,4




## Demografik holat

**Vafot etganlar.** 2019 yilning yanvar-mart oylarida 3,8 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,0 promilleni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 0,1 promillega kamaydi (2018 yilning yanvar-mart oylarida 4,1 promille bo'lgan).

O'lim koeffitsiyenti 2018 yilning mos davriga nisbatan Qo'shrabot tumanida (3,4 promilledan 4,0 promillega), Samarqand shahrida (4,8 promilledan 5,2 promillega) o'sgan bo'lib, sezilarli darajada kamayishi Oqdaryo tumanida (4,1 promilledan 3,0 promillega), Bulung'ur tumanida (4,6 promilledan 3,7 promillega), Jomboy tumanida (4,0 promilledan 3,5 promillega) va Tayloq (3,9 promilledan 3,5 promillega) tumanlarida kuzatildi.

**Hududlar kesimida o'lganlar soni va koeffitsiyenti**  
(2019 yil yanvar-mart)





## Demografik holat

### Tumanlar va shaharlar bo'yicha vafot etganlar soni, yanvar-mart (kishi)

	2018 yil		2019 yil	
	Vafot etganlar soni	1000 aholiga nisbatan (promille)	Vafot etganlar soni	1000 aholiga nisbatan (promille)
<b>Samarqand viloyat</b>	<b>3 724</b>	<b>4,1</b>	<b>3775</b>	<b>4,0</b>
Samarqand sh.	623	4,8	692	5,2
Kattaqo'rg'on sh.	108	5,0	96	4,4
tumanlar:				
Oqdaryo	154	4,1	117	3,0
Bulung'ur	205	4,6	168	3,7
Jomboy	161	4,0	144	3,5
Ishtixon	223	3,7	226	3,7
Kattaqo'rg'on	218	3,4	213	3,2
Qo'shrabot	105	3,4	128	4,0
Payariq	244	4,1	252	4,2
Pastdarg'om	299	3,6	331	3,9
Paxtachi	154	4,5	155	4,4
Samarqand	294	4,9	287	4,7
Narpay	193	3,8	196	3,8
Nurobod	134	3,8	147	4,0
Tayloq	184	3,9	169	3,5
Urgut	425	3,6	454	3,7




## Demografik holat

2019 yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 66,0 % qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 6,9 % o'simtalardan, 4,3 % baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,9 % ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 4,9 % nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 1,2 % yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 11,8 % boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 149 nafarni tashkil etib, ularning 63,9 % perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 18,1 % nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 15,4 % tug'ma anomaliyalardan, 1,3 % baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 1,3 % boshqa kasalliklardan vafot etgan.

### Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



### 2019 yil yanvar-mart

**Tabiiy o'sish.** 2019 yilning yanvar-mart oylarida aholining tabiiy o'sishi 16,0 ming kishini tashkil etib, 2018 yil mos davriga nisbatan 1,3 ming kishiga (2018 yilning yanvar-mart oylarida 14,7 ming kishi bo'lgan) o'sgan.



Tabiiy o'sish:  
16,0 ming kishi






## Demografik holat

**Nikoh.** 2019 yilning yanvar-mart oylarida FHDYO bo'limlari tomonidan 6,0 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 6,4 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2018 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Qo'shrabot tumanida (1,9 %), Pastdarg'om tumanida (0,7 %) va Kattaqo'rg'on shahrida (0,6 %), aksincha kamayish Jomboy tumanida (1,6 %), Nurobod tumanida (1,4 %), Samarqand tumanida (1,1 %), Oqdaryo tumanida (0,9 %) va Urgut (0,5%) tumaniga to'g'ri kelmoqda.

**Hududlar kesimida nikoh tuzganlar soni taqsimlanishi**  
(2019 yil yanvar-mart)




**Nikohdan ajralishlar.** 2019 yilning yanvar-mart oylarida FHDYO bo'limlari tomonidan 0,8 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 0,9 promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar soni 2018 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Narpay (0,2 %), Paxtachi (0,2 %), Tayloq (0,2 %), tumanlariga va aksincha kamayish Samarqand shahrida (0,6 %), Bulung'ur (0,3 %), Oqdaryo va Samarqand (0,4 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.



## Demografik holat

### Hududlar kesimida nikohdan ajralganlar soni va koeffitsiyenti (2019 yil yanvar-mart)



### Tuman va shaharlar bo'yicha tuzilgan nikohlar soni, yanvar-mart (birlik)

	Tuzilgan nikohlar			Nikohdan ajralishlar		
	2018 y.	2019 y.	O'sish sur'ati % da	2018 y.	2019 y.	O'sish sur'ati % da
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>5998</b>	<b>6031</b>	<b>100,6</b>	<b>914</b>	<b>829</b>	<b>90,7</b>
Samarqand sh.	477	522	109,4	250	176	70,4
Kattaqo'rg'on sh.	118	133	112,7	30	29	96,7
tumanlar:						
Oqdaryo	262	231	88,2	42	28	66,7
Bulung'ur	332	327	98,5	45	33	73,3
Jomboy	343	287	83,7	31	32	103,2
Ishtixon	428	432	100,9	49	52	106,1
Kattaqo'rg'on	395	409	103,5	56	46	82,1
Qo'shrabot	106	168	158,5	23	18	78,3
Payariq	451	457	101,3	64	65	101,6
Pastdarg'om	594	666	112,1	68	74	108,8
Paxtachi	251	270	107,6	24	31	129,2
Samarqand	310	250	80,6	99	80	80,8
Narpay	279	295	105,7	35	46	131,4
Nurobod	209	163	78,0	17	19	111,8
Tayloq	351	358	102,0	30	37	123,3
Urgut	1 092	1063	97,3	51	63	123,5



## Demografik holat

**Migratsiya.** 2019 yil yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 2,7 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 4,0 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosini minus 1,3 ming kishi bo'lib, 2018 yilning mos davrida esa minus 1,0 ming kishi bo'lgan.

### Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2018 yil yanvar-mart	2019 yil yanvar-mart
Ko'chib kelganlar	3,5	2,7
Ko'chib ketganlar	4,7	4,0
Migratsiya saldosini	-1,2	-1,3

